

TOSHKENT DAVLAT
SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI


TURKOLOGIYA TURKOLOGY

XALQARO ILMIY JURNAL


ISSN 2181-2101

2024 1-2

ISSN 2181 – 2100



TURKOLOGIYA TURKOLOGY



TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI
ILMIY JURNALI

НАУЧНЫЙ ЖУРНАЛ ТАШКЕНТСКОГО ГОСУДАРСТВЕННОГО
УНИВЕРСИТЕТА ВОСТОКОВЕДЕНИЯ

SCIENTIFIC JOURNAL OF THE TASHKENT STATE UNIVERSITY
OF ORIENTAL STUDIES

1 - 2

2024

Jurnal O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi ro‘yxatidan o‘tgan
(№ 1129, 11.11.2020-y.) **ISSN 2181 – 2101**

Bosh muharrir – Rixsiyeva Gulchehra Shovkatovna
filologiya fanlari nomzodi, professor

TAHRIR HAY’ATI

Q. Omonov	<i>filologiya fanlari doktori, professor (bosh muharrir o‘rinbosari)</i>
P. Kenjayeva	<i>filologiya fanlari doktori, professor (mas’ul kotib)</i>
B. To‘xliyev	<i>filologiya fanlari doktori, professor</i>
Q. Sodiqov	<i>filologiya fanlari doktori, professor</i>
Sh. Usmanova	<i>filologiya fanlari doktori, professor</i>
H. Dadaboyev	<i>filologiya fanlari doktori, professor</i>
N. Rahmonov	<i>filologiya fanlari doktori, professor</i>
B. Karimov	<i>filologiya fanlari doktori, professor</i>
X. Islamjanova	<i>filologiya fanlari doktori, professor</i>
X. Hamidov	<i>filologiya fanlari doktori, professor</i>
A. Alimbekov	<i>filologiya fanlari nomzodi, professor</i>
Dj. Shabanov	<i>filologiya fanlari nomzodi, dotsent</i>
Sh. Sodiqova	<i>filologiya fanlari nomzodi, dotsent</i>
N. Abdullayev	<i>siyosiy fanlar doktori, professor</i>
M. Is’hoqov	<i>tarix fanlari doktori, professor</i>
D. Sayfullayev	<i>tarix fanlari doktori, professor</i>
X. Fayziyev	<i>tarix fanlari nomzodi, dotsent</i>
Z. Alimov	<i>tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)</i>
N. Xolmatov	<i>iqtisod fanlari nomzodi, dotsent</i>
Z. Qodirova	<i>iqtisod fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent</i>
M. Vohidova	<i>iqtisod fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)</i>
R. Bahodirov	<i>falsafa fanlari doktori, professor</i>
A. Shonazarova	<i>AQSHning Kolumbiya universiteti professori</i>
O.Mert	<i>Turkiyaning Anqara universiteti professori</i>
H. Baydemir	<i>Turkiyaning Otaturk universiteti professori</i>
V.S.Yelok	<i>Turkiyaning Anqara Hoji Bayram Vali universiteti dotsenti</i>
N. Telitsin	<i>SPbDU Turkologiya kafedrasi mudiri, professor</i>

Nashrga tayyorlovchilar:

J. Ismoilov, G. Hushnazarova, H. Sulaymonova

Jurnal doktorlik dissertatsiyalari yuzasidan ilmiy maqolalar chop etilishi
lozim bo‘lgan ilmiy nashrlar ro‘yxatiga O‘zbekiston Respublikasi Oliy
Attestatsiya Komissiyasi tomonidan kiritilgan.

e-mail: nashriyot@tsuos.uz
web-site: www.tsuos.uz

© Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti, 2024

МУНДАРИЖА / СОДЕРЖАНИЕ / CONTENTS

Adabiyotshunoslik

<i>Alimbekov A.</i> Hassos romannavis (Rashod Nuri Guntokin)	4
<i>Kenjayeva P.</i> Toriq Bug‘ro hikoyalarida psixologik tasvir ko’rinishlari	12
<i>Azizova N.</i> XX asr boshlarida zamonaviy turk she’riyatining shakllanish omillari.....	21
<i>Karimova Sh.</i> Farid Edgu hikoyalarida qahramon ruhiyatini aks ettirishning badiiy-psixologik tamoyillari.....	28
<i>Rajabov F.</i> Tasavvuf adabiyoti haqidagi ilmiy-nazariy qarashlar	36
<i>Abdulxayeva D.</i> Selim Ileri hikoyalarida qahramon psixologiyasi talqini.....	44

Tilshunoslik

<i>Usmanova Sh.</i> Özbek türkçesi ve türkiye türkçesinde “nan/ ekmek” konsepti.....	52
<i>Allambergenova M.</i> Qadimgi turkiy rasmiy hujjatlarning uslubiy-semantic taraqqiyoti.....	70
<i>Aripov M.</i> Turkcha tilak, olqish va duolarning ijtimoiy-estetik funksiyalari.....	81
<i>Salimova Z.</i> Turk va o‘zbek tillarida gul nomlari vositasida inson obrazining ifodalananishi.....	90
<i>Annazarova T.</i> Paralingvistik vositalar tadqiqida turli maktab va yondoshuvlar.....	98

Tarjimashunoslik

<i>Hamidov X.</i> Aziz Nesin asarlaridagi maqol va iboralarning tarjimada berilishi masalasi	110
--	-----

Manbashunoslik

<i>Omonov Q.</i> Yozma manbalarda Turon davlatining quruvchisi Alp Er To‘nga shaxsiyati bilan bog‘liq ma’lumotlar.....	122
--	-----

TORIQ BUG'RO HIKOYALARIDA PSIXOLOGIK TASVIR KO'RINISHLARI

Kenjayeva Poshshajon

Professor, filologiya fanlari doktori, TDSHU

Annotatsiya. Mazkur maqolada 1940-1960 yillar turk hikoyachiligining taraqqiyotiga xos xususiyatlar haqida fikr yuritiladi. Davrning ko'zga ko'ringan hikoyanavislari va ularing ijodi tilga olinadi. "Qishloq adabiyoti" ta'sirida shakllangan yozuvchilar ham aynan shu davrlarda qalam tebratgan. Ular hikoyalarida Onado'li qishloqlarida ishsizlik, qashshoqlik, johillik, mutaassiblik qurbaniga aylangan insonlar hayotini aks ettirganlar, bu haqida ham maqolada ma'lumot beriladi. Bu davr hikoyachiligidagi o'zining uslubi bilan ajralib turgan yozuvchi Toriq Bug'ro ijodiga alohida e'tibor qaratiladi. Xususan, adibning psixologik tasvir mahorati hikoyalari misolida tahlil qilinadi. Maqolada uning "Ertaga degan gap yo'q" ("Yarin Diye Bir Şey Yoktur"), "Sabzili palov masalasi" ("Havuçlu Pilav Meselesi"), "O'g'limiz" ("Oğlumuz") singari hikoyalari tadqiq etiladi. Yozuvchi hikoyalarining tahlilida turk adabiyotshunoslarining fikrlari ham e'tiborga olingan.

Kalit so'zlar: turk adabiyoti, hikoya, psixologik tasvir, uslub, realizm.

Özet. Bu makalede 1940 ile 1960'lı yıllar arasında türk hikâyeciliğinin gelişimi ele alınmıştır. Dönemin onde gelen hikâye yazarlarının eserleri incelenmiştir. "Köy Edebiyatı" etkisindeki yazarların da bu dönemde öyküler yazdıkları bilinmektedir. İncelenen dönem hikâyelerinde Anadolu köylerindeki işsizliğin, yoksullüğün, cehaletin, taassubun mağduri olmuş insanların hayatları yansıtılmıştır. Çalışmada dönem hikâyeciliğinde üslubıyla öne çıkan Tarık Buğra hikâyelerinden özellikle, yazarın psikolojik portre yaratma teknikleri "Yarin Diye Bir Şey Yoktur", "Havuçlu Pilav Meselesi", "Oğlumuz" gibi hikâyeleri örneklerinde incelenmiştir. Makalede yazarlarındaki türk araştırmacıların çalışmalarından da yararlanılmıştır.

Anahtar Kelimeler: Türk Edebiyatı, Hikâye, Psikolojik Portre, Üslup, Gerçekçilik.

Abstract. This article discusses the characteristics of the development of Turkish storytelling in the 1940s-1960s. Prominent story writers of the period and their works are mentioned. Writers who were formed under the influence of "village literature" also created their masterpieces during these times. In their stories, they reflect the lives of people who became victims of unemployment, poverty, ignorance, bigotry in the villages of Onado'li. Particular attention is paid to the work of the writer Tariq Bugro, who is distinguished by his style in the storytelling of this period. In particular, the writer's psychological image skills are analyzed on the example of stories. The article examines his stories such as "There is no question of tomorrow" ("Yarin Diye Bir Şey Yoktur"), "The matter of vegetable pilaf" ("Havuçlu Pilav Meselesi"), "Our Son" ("Oğlumuz"). In the analysis of the writer's stories, the opinions of Turkish literary experts were also taken into account.

Key words: Turkish literature, story, psychological image, style, realism.

Kirish. 1940-1960 yillar turk hikoyachiligi taraqqiyotida muhim o'rincutgan davr hisoblanadi. Bu davr hikoyalarida mavzular ko'lami kengaygani, obraz talqinida teran psixologik tasvirlash tamoyili kuchaygani, xususan, uslub poetikasi

borasida qator yangilanishlar maydonga kelgani kuzatiladi. Zotan, bu davr nasrida Onado‘li xalqining turmush tarziga e’tibor kuchaydi. Zamon va sivilizatsiya maromi oldida esankiragan inson muammosi 1940-1960 yillar hikoyachiligidagi etakchi tasvir ob’ektiga aylandi.

Bu davr adabiyotida etakchilik maqomni egallagan realizm ikki yo‘nalishda davom etdi. Bularning biri hayot haqiqatini muayyan izmlar ta’sirisiz qalamga olishga yo‘naltirilgan Mopassan, Balzak, Chexovga xos realizm bo‘lsa, ikkinchisi sotsrealizm ta’sirida paydo bo‘lgan hikoyanavislik an’anasi edi. Ijodida sotsrealizm metodi tamoyillari yaqqol seziladigan yozuvchilar guruhi adabiyot maydoniga kirib keldi. Rashod Enis (Aygen), Umran Nazif (Yigiter), Halikarnas Baliqchisi, Faqir Boyqurt, Dursun Akcham, Samim Ko‘jago‘z, Bakir Yildiz, Ilhan Tarus, Kamol Bilbashar, Kamol Tohir, Mehmet Basharan, Mehmet Seyda, Muzaffar Hojihasano‘g‘li, Nejati Jumali, Naziha Merich, O‘rxon Kamol, Muzaffar Buyruqchi, Usmon Shahin, Laylo Erbil, Sevgi Soysal, Tolib Apaydin, Yashar Kamol, Zeyyat Selimo‘g‘li, Erindiz Otasu, Inji Aral, Burxon Gunel, Kamol Otash kabi yozuvchilarni shu siraga kiritish mumkin.

Maqsad va vazifa: Zamonaviy turk nasri doirasida 1940-1960 yillar turk hikoyachiligining taraqqiyot tamoyillarini tadqiq etish, xususan, Toriq Bug‘ro ijodining uslubiy o‘ziga xosligi, hikoyalaridagi qahramon psixologiyasi tasvirini ilmiy asoslashdan iborat.

1940-1960 yillar zamonaviy turk hikoyachiligining badiiy tamoyillarini Toriq Bug‘ro ijodi misolida aniqlash va shular asosida bu davr hikoyachiligining taraqqiyot tamoyillariga doir ayrim nazariy umumlashmalar chiqarish maqola oldiga qo‘yilgan vazifalar hisoblanadi.

Usullar: 1940-1960 yillar turk hikoyachiligining taraqqiyoti, xususan, Toriq Bug‘ro ijodini o‘rganishda tarixiy-qiyosiy va psikoanalitik tahlil metodlaridan foydalanildi.

Natijalar va mulohaza: Sotsrealizm yo‘lida yozilgan turk hikoyalarining bar-chasi yagona mazmunga ega emas. Shu bois ularni mavzu va mundarija nuqtai nazaridan muayyan guruhlashtirib o‘rganish maqsadga muvofiq. Birinchi guruhi hikoyalarini turk adabiyotshunosligida “qishloq adabiyoti” termini ostida tushuniladigan asarlar tashkil etib, ularning markaziy qahramonlari qishloqda qashshoq turmush kechirgan yoki vatanidan yiroqda yashagan o‘rtahol odamlar, oddiy turk ayollaridan iborat qahramonlardan iborat. Turk hikoyachiligining bu davri 1940-yildan 1954-yilgacha davom etdi.

“Qishloq adabiyoti”ga oid asarlarning aksariyati qishloqda tug‘ilib, qishloqda yashagan yozuvchilar tomonidan yozildi. Faqir Boyqurt, Tolib Apaydin, Mehmet Basharan, Dursun Akchamlar shu toifa yozuvchilar hisoblanadi. Bu adiblar ilk asarlarini “Qishloq institatlari” jurnalida (1945-1947) nashr eta boshladilar.¹ Hatto

¹ Çetin N. Türk Hikayesinde Sosyalist Realizm (Toplumcu Gerçekçilik) // Öykü. Sayı: 4. Ağustos-Eylül 2004. –S.55.

o'sha davrda qishloq institutlari ochilib, unda qishloq hayotini, odamlarini o'z asarlarida aks ettirishni xohlagan yozuvchilar tahlil oldilar. Onado'li qishloqlarida ishsizlik, qashshoqlik, johillik, mutaassiblik qurbaniga aylangan insonlar hayoti hikoyalar mazmun-mohiyatiga singdirildi. Hikoyalarda qishloq qahramoni timsoliga asos bo'lgan omillar ikkiga ajratib ifoda qilindi: birinchi toifa insonlar ezilgan, xo'rangan, oyoq osti qilingan kambag'al qishloq odamlari bo'lsa, ikkinchi toifa mulk egalari, hokimiyatni boshqaruvchi noyiblardan tashkil topgan edi. Bu toifa kishilar qahramon qilib olingen hikoyalar asosida "xo'rangan – xo'rangan – najotkor" uchligi turadi. Voqealar shu uchlik atofida kechadi. Bundagi aksar qahramonlar o'zaro o'xshash bo'lib, bir asardan boshqa asar syujetlariga ko'cha boshladи. Oqibatda temir odam singari sas-sadosiz mehnat qilayotgan, bir xil obrazlar urchib ketdi. Ular qaysi bir qirralari bilan sovet hikoyalaridagi proletariat obrazini yodga soladi. A.Qahhorning "Bemor", "Yulduzni ko'zlagan qiz", "Kamplirlar sim qoqdi", Uyg'unning "Nazr otaning g'azabi", Mirmuhsinning "Degrez o'g'li", Hamid G'ulomning "Mash'al" asarlaridagi ijobjiy qahramonlar bilan qiyofadoshlik kasb etadi.

Bu davr hikoyachiligidida Toriq Bug'ro (1918-1994) ijodi ham o'zining teran mazmuni, original syujeti, hayotiy obrazlari, ayniqsa, o'ziga xos uslubi bilan muhim o'rin tutadi. Uning 1948-1969 yillar vaqtli matbuoti sahifalarida 82ta hikoyasi chop etilgan. Toriq Bug'ro hikoyalarida insonga xos ruhiy kechinmalar, his-tuyg'ular tahlili etakchilik qiladi. Insonning baxt-saodati, ozodligi yo'lida o'zligini fido qilishga tayyor yozuvchi uslubining markazini inson ichki olami muammosining tahliliy ifodasi tashkil etgan desak yanglishmaymiz.

Toriq Bug'ro hikoyachiligi uslubini shunga ko'ra psixologik tasvir uslubi tarzida nomlash maqsadga muvofiqdир. Chunki uning hikoyalarida voqealar bonyoni emas, inson hayoti davomida uchrashi mumkin bo'lgan murakkab vaziyatlar badiiy tahlil yo'sinida hikoya qilinadi. Ularda yagona makon ichidagi inson va u bilan bog'liq vaziyat yoki holat tasvir etiladi. Vaqt nuqtai nazaridan o'ta qisqa – lahma ichida sodir bo'ladigan botiniy holatlarni hikoyalash T.Bug'roning xos uslubi hisoblanadi. Tashqi olam, tabiat tasviri ham uning hikoyalarida shunday vaziyatlarni yoritish yo'lida xizmat qiladi yoki asar syujetiga olib kiriladi.

Uning "Ertaga degan gap yo'q" hikoyasida bir kechada butun hayoti ko'z oldida gavdalangan, tun bo'yi uxmlay olmagan qahramon ruhiy holati aks ettiriladi. Yoshligida katta maqsadlarni orzu qilgan asar qahramoni ulg'aygach qarzga botib gazetaga tahrirchi bo'lib ishga kiradi. Yozuvchi barcha hikoyalaridagidek, bu hikoyasida ham insoniyatni tashlab ketayotgan ezgu hissiyotlar, uning ustiga yopirilayotgan yovuzlik elchilar haqida so'z yuritadi: "*Ufq to'zonlar-u tuman ortida, atom tezligida qaynayotgan qahr-u g'azablar, jahldor-u xafaqonlar, zavqlanish-u jirkanishlar, umid-u umidsizliklar, sevgi-yu azoblar ortida erib*

borardi".¹ Bunday holat tasviri ko‘zga ko‘rinmay sodir bo‘ladigan, ammo salbiy ta’siri atomdan ham kuchli bo‘lgan fojiaviy bir voqelik haqida xabar beradi. Buni oddiy odamlar, turmush tashvishlari bilan o‘ralashib g‘ofillarcha kun kechirayotgan nafs bandalari sezmaydilar. Faqat qalbi ochiq, ko‘ngli pok, ijodkor qalbgina bunday mavhumiyat qatlamida ro‘y berayotgan jarayonlarni ilg‘aydi. Ilg‘aydigina emas, chuqur his qiladi. Undan ufurib turgan fofia ufunatidan iztirob chekadi. T.Bug‘ro hikoyasiga xos uslubning o‘ziga xosligi shundaki, kosmik qatlama sodir bo‘layotgandek tasvirlangan bu fojiaviy hodisalarining barchasi aslida qahramon ko‘nglida sodir bo‘ladi. Yozuvchi buni ko‘ngil monologi sifatida ifoda etadi.

Yozuvchi qahramon holati yoki xarakterini ko‘proq ruhiy kechinmalar orqali aks ettiradi. Shu asnoda qahramon his-tuyg‘ulari, o‘y-xayollari xarakteriga xos xususiyatlarni ochib beradi. Hikoya voqelikni qamrash, hajm va qahramonlari jihatidan ixcham janr bo‘lgani uchun aksar yozuvchilar ijodida hodisalar bayoniga o‘xshab qoladi. Bu janr doirasida ko‘pincha psixologik tasvirga o‘rin qolmaydi. T.Bug‘ro esa butun boshli hikoyalarini psixologik tasvir uslubiga quradi. Qahramon portreti, unga xos muloqot shakllari, u harakatlanayotgan makon-inte’er faqat ichki holatlar tasviri orqali ayonlashadi. Inson ichki olamini tasvirlash jo‘n ish emas. Buning uchun ijodkorning o‘zi shu olamda yashashi lozim. T.Bug‘ro mana shunday o‘ziga xos tabiatga ega yozuvchi hisoblanadi. Adabiyotshunos H.Umurov badiiy psixologizm haqida shunday yozadi: “Psixologizmning formalari turli-tuman bo‘lganidek, uning portret, dialog, monolog, tush, psixologik timsollar, hissiy harakatlar, peyzaj, gallyutsinatsiya kabi poetik vositalari ham rang-barangdir. Ularning har biri qahramon ichki dunyosining yashirin sirlarini oshkor qilishda yozuvchiga qo‘l keladi”.²

T.Bug‘ro hikoyalarida portret, dialog, monolog, tush, gallyutsinatsiya, hissiy harakatlar singari poetik vositalarning barchasi psixologik tasvir samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Quyidagi monologik nutqning o‘ziga xosligiga e’tibor qaratamiz: “*Qo‘limdagи sigaretni chekayotib Homidning biror she‘rini yoki Dovalajiro nutqini yoxud anqaralik mashhur tanqidchining ona tilida suhbatini o‘qimoqchi bo‘ldim; biroq, qarasam, hayajon butun borlig‘imni chulg‘ab olgandi, men hatto eng ta’sirli voqealarni xayoldan birma-bir o‘tkazib, qo‘pollashib borayotgandek edim; hech narsa o‘qimaslikka qaror qildim.*³” Inson ichki holatlarining bunday chigal tasviriga duch kelgan o‘quvchi, albatta, o‘yga toladi. Qahramonni hamma narsadan, hatto kitob o‘qishdek sevimli mashg‘ulotidan chalg‘itgan narsa nima? Nega u tinimsiz tamaki tutunini ichiga yutmoqda, nega uni hayajon ustiga hayajon bosmoqda, nega u o‘zini qo‘pollashib borayotgandek his qilyapti? Psixologiyaga oid tadqiqotlarda insonda ro‘y beradigan bunday

¹ Буфро Т. Эртага деган гап йўқ /С.Елўқ, П.Кенжаева Кутиммаган меҳмон. Академнашр. Т-2011. –Б.205.

² Умурев X. Бадиий психологияни ҳозирги ўзбек романчилиги. -Т.: “Фан”. 1983. –Б.32.

³ Буфро Т. Эртага деган гап йўқ. / В.Елўқ, П.Кенжаева. Кутиммаган меҳмон. Академнашр.Т-2011. –Б.204.

holatlarning ildizi individ ko'ngli bilan tashqi olam voqeligi o'rtasida nomutanosiblik, ziddiyatga borib taqalishi aytildi. Agar inson ichki dunyosida bir dialektik tizim sifatida yashayotgan ID-EGO-SUPEREGO o'rtasida ichki kelishuv, muvozanat yuzaga kelmas ekan, u insonni telbalik yoki o'limga olib kelishi mumkinligi qayd etiladi.¹ T.Bug'ro hikoyasida mana shunday murakkab holatni, Z.Freyd psixoanalizi ta'siridagi G'arb adabiyoti izlarini ko'ramiz.

Yoki "Sabzili palov masalasi" ("Havuçu Pilav Meselesi") hikoyasi qahramoni holatini olaylik. Asarda ham monologik nutq, ham hissiy harakatlar o'yinidan samarali foydalanilgan. Bu hikoyada ham xuddi oldingi hikoyadagi kabi barcha harakat hamda voqealar inson botinida kechadi: "*Yomg'ir qanday go 'zal tomchilardi... Faqat odamlar, menga begona, bee'tibor odamlar. Vaholanki men masalan, shu ayolni sevishim, ana u odam bilan do'st bo'lishim mumkin, ammo ular o'tib ketmoqda, aslo to'xtatishning imkoniy yo'q, o'tib ketishmoqda. Ro'paramanda paydo bo'lgan mayxonaga kirdim: bufet oldidagi o'rindiqlarning biriga o'tirdim... Ko'nglim bir hamlada butun shishalarni sipqorsa deydi.*

Bir qadah, yana bir qadah, yana bir qadah..."

("Yağmur, ne güzel çiseliyordu... Fakat insanlar, bana yabancı, bana aldırış etmeyen insanlar. Halbuki ben, mesela şu kadını sevebilir, şu adamla pekala dost olabilirdim, ama onlar geçip gidiyorlar, asla durdurulamaz bir tarzda geçip gidiyorlardı. Rastgele bir meyhaneye girdim: Büfenin önündeki taburelerden birine oturdum... Bir hamlede bütün şişeleri boşaltmak istedim.

Bir kadeh, bir kadeh daha, bir kadeh daha..."²

Hikoya qahramonining ayni damdag'i holati nihoyatda murakkab. Birinchidan u odamlar orasida begona. Qiyoysi, tashqi ko'rinishi odamga o'xshasa ham, atrofdagi odamlar uni payqamaydilar. O'z saflaridagi bir banda sifatida qaramaydilar unga. Har qalay qahramon botinan shuni his qiladi. Ikkinchidan u o'z-o'ziga ham begona. Shu bois ham ko'nglidan topa olmagan do'stni tashqaridan, begona odamlar orasidan qidiradi. Uchinchidan, bu ikki olamga begonalik hissi qahramon ko'nglida o'z-o'zini mahv etish istagini uyg'otadi. Bu inson ichki dunyosiga xos "g'ayrioddiy lazzatlanish tamoyili" bo'lib: "G'ayrioddiy lazzatlanish tamoyilining funksional shakllari oddiydan murakkabga, sarkashlikdan vahshiyikkacha bo'lgan bepoyon makon va zamon ko'lamiga ega. Chekish, ichish, qimorvozlik, betartib turmush kechirish kabi qator umuminsoniy qusurlar mazkur tamoyilning eng oddiy va kundalik shakllari hisoblanadi".³

"Sabzili palov masalasi" qahramoni ortda qolgan yillari uchun iztirob chekadi. O'tgan kunlarini qo'msaydi, ammo u kunlar o'tib ketgan. Bu hikoyaning tug'ilishi haqida yozuvchi shunday xotiralarini bayon etadi: "O'qituvchilar xonasida, deraza

¹ Бу ҳақда қаранг: Жўрақулов У. Психоанализ ва бадиий ижод / Худудсиз жилва.-Т.:Фан, 2006. -Б.37-44.

² Buğra T. Havuçu Pilav Meselesi. / Türk Edebiyatından Öyküler 1. (Hazırlayanlar: Ercan E., Önemli İ.) (Tarjima bizniki – П.К.) İnkılap. İstanbul-2014. –S.161.

³ Жўракулов У. – Кўрсатилган асар. -Б.52.

yonida o‘tirgan edim, muovinlar ham shu erda, ko‘chada yomg‘ir, ko‘nglim esa g‘ash... Xayolimga jumlalar kela boshladi: “Yomg‘ir yog‘ardi, shig‘alab yog‘ardi” yoza boshladim. Hikoya shunday tug‘ildi. “Sabzili palov masalasi” sarlavhasi keyin nomlandi. Hikoya menga ma’qul keldi. O‘rtochga olib bordim. Qo‘lyozmam xunuk emasdi, har holda o‘qisa bo‘lardi. U o‘qiy boshladi, chehrasi yorishdi, tabassum paydo bo‘ldi, orada kulib qo‘ydi. Hikoyam unga ma’qul kelgani sezilib turardi”.¹ Chunki tabiiy hodisalar ichida yomg‘irchalik odamni o‘yga toldiradigan, uning ming yillik botin hissiyotlarini qo‘zg‘aydigan ikkinchi bir hodisani topish qiyin. Asarni o‘qir ekansiz, undagi ifoda maromi yomg‘irning tomchilash maromi bilan uyg‘unlashib ketganini his etasiz. Yomg‘ir tezlashgan sari qahramonning yurak urishi ham tezlashadi. Uning iztirobli xotiralari junbushga keladi. Yomg‘ir sekinlashsa qalb maromi sokinlashishi barobarida xotiralar ummoniga-da sokinlik cho‘kadi.

T.Bug‘roning hikoyalari markazida aksariyat oila muammolari turadi. Ularda oilaviy munosabatlar, shuning orqasida kelib chiqadigan botin ziddiyatlari qalamga olinadi. Ayniqsa, dunyo adabiyotida ko‘p ishlangan “otalar va bolalar muammozi” T.Bug‘ro hikoyalarida chuqur psixologik tahlil yo‘li bilan ifoda etiladi. “O‘g‘limiz” (“Oğlumuz”) hikoyasida voyaga etgan bola, unga hamon boladek munosabatda bo‘layotgan ota-onha holati o‘z “men”ini ixotalash bosqichiga etgan o‘g‘il holati bilan muqoyosa qilinadi. Oiladagi yagona o‘g‘il Umarni o‘z uyidan uchirma bo‘lishi, mustaqil hayot boshlashi lozim. Ota unga qarata shu so‘zlarni aytadi: “Bilaman: endi senga jihozlangan xonang ham, qadrdon uying ham yoqmay qolgan... Uchirma bo‘layotgan chumchuq polaponiga o‘xshab, xayoling boshqa shoxlarda.” (“Ben biliyorum: sen, artık odaların bu döşenis tarzını, hatta bu evi beğenmiyorsun... Uçmayı öğrenmiş bir serçe yavrusu gibi, gözün başka dallarda.”)² Ammo o‘g‘liga bu so‘zlarni iztirob bilan aytayotgan ota eslamaydiki, qachonlardir o‘zi ham shu yoshda bo‘lgan. Ota-onasidan ajralib mustaqil hayot boshlagan. O‘g‘li kabi o‘z uyidan begonalashgan. Otaning farzandiga bo‘lgan cheksiz mehri bu erda tabiat qonunlarini tan olishiga to‘sinqilik qiladi. Tilidan beixtiyor ta’na-malomat so‘zları yog‘iladi. Yozuvchining o‘ziga xosligi ota va bola degan ikki qutb holatini ham xolis tasvirlaydi. Ular o‘rtasida hakamlik qilmaydi. Natijada ikki o‘rtadagi kontrast G‘arb adabiyotidagidek keskin tus olmaydi. Qahramonlar ko‘ngil tubidagi sog‘inch va iztirob ohanglari o‘quvchi ongiga singadi. Shu tariqa har kuni ro‘y berib turadigan, oddiy bir voqeа badiiy so‘z va mukammal uslub vositasida abadiyat libosini kiyadi. Haqiqatan ham bu hikoya: “Ulkan muvaffaqiyatlarga erishdi. Omma o‘rtasida shov-shuv bo‘ldi. Yozuvchi kutilmaganda bitta hikoyasi bilan

¹ Karabay M. - Ergüzel M. Tarık Buğra ve Güneş Rengi Yapraklar. / Tarık Buğra Söyleşiler (Hazırlayan: Mehmet Tekin). Çizgi kitabevi. Konya-2004. –S.176.

² Tosun N. Tarık Buğra: Büyük Aşklar, Büyük Hayatlar. / Öykümüzün Kırk Kapısı. Hece Yayımları. Ankara-2013. –S.121.

adabiyotimizning yorqin yulduziga aylandi”, - deya ta’kidlaydi T.Bug‘ro tadqiqotchilaridan biri T.Qoratosh.¹

Shuningdek, Toriq Bug‘ro “San’at san’at uchun” shiori ostida qalam tebratdi. Yozuvchi mazkur shiorni shunday sharhlaydi: “San’at san’at uchun degani san’atni alohida ajratish, jamiyatdan ayro tutish degani emas. Aksincha, men san’atni jamiyat uchun, uning asosini, hukmlarini me’yordan oshmagan holda tasvirlash foydali deb tushunaman. San’at jamiyat uchun shiori siyosatchilar tomonidan o‘ylab topilgan. Ijod ahli mustaqil fikrga ega, erkin qalam tebratuvchi insondir. Bitta g‘oya yoki partiyaning targ‘ibotchisi emas. Faqat mana shundagina san’at jamiyat uchun foydali bo‘ladi.² Yozuvchining bu fikrlariga to‘la qo‘shilish mumkin. Chunki “San’at jamiyat uchun” shiori sovet hokimiyyati davrida qanday oqibatlarga olib kelgani, tuzum tanazzuli bilan o‘z umrini yakunlaganini biz o‘zbek adabiyotshunoslari juda yaxshi bilamiz. Hikoyalaridagi o‘ziga xoslik va yuqoridagiga o‘xhash original fikrlaridan kelib chiqib, T.Bug‘ro ijodiy prinsipi va uslubini psixologik yoki botin realizmi uslubi tarzida baholash maqsadga muvofiq deb o‘laymiz.

Adabiyotshunos M.Qoplon T.Bug‘roning “Hayot o‘zi shunaqa” hikoyasini tahlil etar ekan, quyidagi xulosaga keladi: “Hikoyada ayolning sevmay turmush qurgan umr yo‘ldoshiga bo‘lgan begonalik hissi bilan muallifning tanimagan ayolga bo‘lgan munosabati o‘rtasida qarama-qarshilik mavjud. Ayol ham bir daqiqaga to‘xtagan poezd derazasidan, ko‘zi tushgan erkakka qalbidagi tuyg‘u bilan qaraydi. Ayol uchun poezd, poezd derazasidan ko‘ringan erkak yoki erkaklar, hayotida erisha olmagan yoki erisha olmaydigan muhabbatni ifodalaydi”.³ Yozuvchi hikoya davomida ayol tuyg‘usini sekin-asta bekatdan uzoqlashayotgan poezd harakati orqali ramziylashtiradi: “*Shunday, har kecha aniq soatda kelib bir daqiqa to‘xtagandan keyin telbalarcha sevilgan, lekin sevmagan erkakdek, vahshiy, qo‘pol, loqayd, biroq salobatli, qo‘polligi, loqaydligi ortgan sari ko‘proq sevilgan, tashlab ketganida ko‘ngilni ortiqroq alangalatgan erkakdek sudralib borayotgan poezd.*”(“Şu, her akşam bu saatte gelen ve bir dakika duruktan sonra; deli gibi sevilen, fakat sevmeyen bir erkek gibi; vahşi, kaba ve kayıtsız; lakin vahşeti, kabaklısı, kayıtsızlığı arttıkça daha çok sevilen, bırakıp gittikçe daha çok bağlayan bir erkek gibi çekip giden tren.”)⁴ Bu yerda ayol shuurida kechayotgan psixologik holat go‘yo ong oqimiga o‘xshab uzluksizlikda beriladi. Jumla so‘ngidagina gap poezd haqida ketayotganini anlaymiz. Ayol hissiyoti, ichki iztiroblari shunchalik teranki, uning nigohi har bir tirik yoki o‘lik mavjudotda erkak siyemosini ko‘radi. Uning muhabbatga qonmagan ko‘ngli, botiniy istaklari barcha narsalarni, hatto bir uyum temir

¹ Karataş T. Tarık Buğra’nın Öyküleri ve Öykücülüğü // Bilig. Kış. 2009.Sayı:48. –S.120.

² Kabacalı A. Televizyona Uyarlanmış Romanları ve Öyküleri. Oyunları ile Tannan Tarık Buğra / Tarık Buğra Söyleşiler (Hazırlayan: Mehmet Tekin). Çizgi Kitabevi. Konya-2004. –S.147.

³ Kaplan M. Hikaye Tahlilleri. Dergah Yayınları. (14. Baskı). İstanbul-2009 -S.247.

⁴ Kýpsatilgan acap. -S.247.

bo‘lgan poezdni ham, erkak sifatida ramzlashtiradi. Natijada ichki “men” tasviri bilan real dunyo, real hayot voqeligi bilan badiiy ramz bir doiraga jamlanadi, murakkab psixologik tasvir maydonga keladi. Erkakka nisbatan ham muhabbat, ham nafratning bir paytda, antonim so‘zlar tizmasida ifodalanishi ayollarning murakkab ichki dunyosidan darak berishi bilan birga, uning ramzlarga to‘la xayoloti, tabiiy fantaziyasining noyobligini yana bir bor tasdiqlaydi. Darhaqiqat badiiy ramz: “...voqelikning timsolidir. Voqelikning aynan o‘zi go‘zal emas, uning timsoli go‘zaldir. Illo tosh emas, toshga yo‘nilgan xayol go‘zal. Adabiyotning ilohiy kuchi – ana shu xayolni yarata olishda ko‘rinadi. Ijod yaratishdir. Yaratish esa, ilohiyotga daxldorlikdir. Yaratish zavqi barcha zavqdan, yaratish azobi barcha azobdan yuksakroqdir.”¹. Shu jihatdan T.Bug‘roning aksariyat hikoyalari ham voqelikning timsoli, go‘zal xayolotning shirin mevasi deyish mumkin. Yozuvchi shu va shu kabi teran psixologik tahlillardan tug‘ilgan hikoyalari bilan turk hikoyachiligining yangi bosqichga ko‘tarilishida o‘z hissasini qo‘shdi.

Xulosa. Umuman, Jumhuriyat davri turk hikoyachiligidagi janr taraqqiyoti xalq adabiyoti va tili, shu bilan birga, jahon adabiyoti an’analari negizida amalgaloshgani kuzatiladi. Hikoya janri shaklan ixchamlashdi, mazmunan ijtimoiylashdi, obrazlar tizimiga ko‘ra rang-baranglik kasb etdi. Hikoyanavislarning voqelikni badiiy talqin etish usullarida mushohadaviylik, milliylik, ijtimoiylik va falsafiylik mushtarak holatda namoyon bo‘ldi. Bu turk hikoyachiligidagi chinakam novatorlikdan dalolat edi. Xususan, 1940-1960 yillar turk hikoyachiligidagi uslubiy yangilanishlar izchil davom etgani kuzatiladi.

Toriq Bug‘ro uslubi esa inson botini, psixologik holatlarini teran idroklash, tasvirlashga urinishlar jarayonida shakllandi. T.Bug‘ro hikoyalariga xos tasvir prinsipi turk adabiyotida psixologik tasvir yo‘nalishini boshlab berdi. Bunday uslub 1940-1960 yillar hikoyachiligining zamонавиy turk kishilar – erkaklar, ayollar bolalar, keksalarning – zohiriy dunyosidan botin dunyosiga, shaxsiyati tasviridan ichki “men”i tahliliga o‘tganidan dalolat beradi.

Shuningdek, 1940-1960 yillar turk hikoyachiligining o‘ziga xos uslubi degan umumiy muammo mohiyatini belgilashda bu davr uslubini Toriq Bug‘ro hikoyalari singari o‘zining ijodiy dunyoqarashi, iste’dodi, badiiy prinsiplari, hayotni idroklash, badiiy aks ettirish salohiyatiga ko‘ra o‘zgartirgan individual yozuvchilar asarlari muhim o‘rin tutadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Елўқ С., Кенжаева П. Кутимаган меҳмон. Академнашр. Т-2011.
2. Жўракулов У. Худудсиз жилва. Фан, Т-2006.
3. Kaplan M. Hikaye Tahlilleri. Dergah Yayınlari. (14. Baskı). İstanbul-2009.

¹ Эшонқул Н. Ижод қудрат, гўзаллик, илоҳиётга дахлдорликдир // Миллий тикланиш. – 1998, 19 – май.

4. Karataş T. Tarık Buğra'nın Öyküleri ve Öyküçülüğü // Bilig. Kış. 2009. Sayı:48.
5. Tarık Buğra Söyleşiler (Hazırlayan: Mehmet Tekin). Çizgi kitabı. Konya-2004.
6. Tosun N. Öykümüzün Kırk Kapısı. Hece Yayıncıları. Ankara-2013.
7. Türk Edebiyatından Öyküler 1. (Hazırlayanlar: Ercan E., Önemli İ.) İnkılap. İstanbul-2014.
8. Умurov X. Бадиий психологизм ва ҳозирги ўзбек романчилиги. -Т.: “Фан”. 1983.
9. Çetin N. Türk Hikayesinde Sosyalist Realizm (Toplumcu Gerçekçilik) // Öykü. Sayı: 4. Ağustos-Eylül 2004.
10. Эшонкул Н. Ижод қудрат, гўзаллик, илоҳиётга дахлдорликдир // Миллий тикланиш. – 1998, 19 – май.